


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K: 101.1

**JAMIyatda MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHDA
YOSHLAR TARIXIY-FALSAFIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКОГО
МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И
СОЛИДАРНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ**

**THEORETICAL ASPECTS OF DEVELOPING THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL
THINKING OF YOUNG PEOPLE IN ENSURING INTERETHNIC HARMONY AND SOLIDARITY IN
SOCIETY**

Isomiddinov Xakimjon Jo'rboevich 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish masalalari, tarixiy-falsafiy jihatlari, zaruriyati, bugungi kundagi dolzarb masala ekanligi tadqiq qilingan hamda ushbu jarayonda uning ijimoiy-falsafiy, axloqiy, ma'naviy, huquqiy tasnifi va jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Annomatsiya

В статье рассматриваются важность и дальнейшие перспективы обеспечения межэтнического согласия и солидарности в обществе, его необходимость, актуальная проблема, при этом анализируются его социально-философская, нравственная, духовно-правовая классификация и особенности.

Abstract

The article examines the importance and future prospects of ensuring inter-ethnic harmony and solidarity in the society, its necessity, current issue, and in this process, its socio-philosophical, moral, spiritual, legal classification and specific features are analyzed.

Kalit so'zlar: jamiyat, millatlararo totuvlik, hamjihatlik, ijimoiy-falsafiy, axloqiy, ma'naviy, huquqiy, tafakkur, kelajak istiqbollari.

Ключевые слова: общество, межнациональное согласие, солидарность, социально-философская, моральная, духовная, правовая, перспективы будущего.

Key words: society, interethnic harmony, solidarity, socio-philosophical, moral, spiritual, legal, future perspectives.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida turli millat va elat vakillari o'rtasida hamjihatlik, totuvlik va bag'rikenglikni qaror toptirish juda muhim vazifa hisoblanadi. Chunki millatlararo totuvlik va hamjihatlik nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy masala, balki avvalo ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy muhitni shakllantirishga taalluqli murakkab jarayon sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, yoshlar mazkur jarayonning faol ishtirokchilari sifatida alohida ahamiyatga ega. Yosh avlodda tarixiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish - ular ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashishiga, turli madaniy muhitlarga hurmat bilan yondashish ko'nikmasining tarkib topishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashning ahamiyati va tarixiy-falsafiy mazmuni bo'yicha N.Jo'rayev, S.Safayev, A.Jalilov, R.Jumayev, N.Mamanazarov, Q.Jo'rayev, R.Murtazayeva, R.Ubaydullayeva, I.Ergashev, X.Yunusova, V.Gentshke kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, ta'lrim muassasalarida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy islohatlar borasida keng ko'lamlı ishlar olib borilayotganligining asl sababi ham shunda. Zero, bugun mamlakatimizda

ILMIY AXBOROT

ma'nnaviy yuksalishga xizmat qilayotgan islohotlar navqiron avlodni ulug' ajdodlarimiz xotirasi bilan haqli ravishda faxlanish, tinchlik, osoyishtalik hamda obodlik uchun kurashish, mustaqillikni qadrlash va Vatanni ardoqlab yashashga undashi bilan yanada ahamiyatlidir. Demak, komillik sari intilgan, har jihatdan etuk va barkamol avlodni tarbiyalash –bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekan, bu vazifani amalga oshirishdagi etakchi kuch –ta'lif-tarbiya tizimidir. Binobarin, ta'lif-tarbiya – inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir.

Tarixiy tafakkur – voqelikni, ijtimoiy hayotni, madaniy meros va an'analarni tarixiy jarayonlar orqali tushunish, baholash va tahlil qilish qobiliyati. Tarixiy tafakkur yoshlarning o'z milliy o'tmishi, urf-odatlari va an'analarini chuqur idrok etish, boshqa millatlarning tarixiy taraqqiyoti, tajribalari va madaniy merosiga hurmat bilan qarash, turli davrlarda yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarning mazmunini tushunish, ulardan saboq olish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Falsafiy tafakkur – voqelikning mohiyati, inson va jamiyat munosabatlari, axloq, adolat, baxt, haqiqat, ezzulik kabi tushunchalarni chuqur anglash, o'zi va boshqalarning g'oyaviy qarashlarini baholash hamda tahlil qilish qobiliyati.

Falsafiy tafakkur yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, atrof-muhitni har tomonlama chuqur o'rganish, ma'nnaviy-axloqiy mezonlarga asoslanish, global va mahalliy muammolarni keng ko'lamma ko'ra bilish, mustaqil, ma'nalan boy va bag'rikeng shaxs sifatida shakllanish jarayonlarini ta'minlashda yordam beradi.

Tarixiy-falsafiy tafakkur – yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashida, o'zlikni kashf etishida, shu bilan birga, boshqa millat va elat vakillariga nisbatan bag'rikeng, xolis munosabatni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Millatlararo totuvlik – jamiyatda mavjud bo'lgan turli millat va elat vakillarining tinch-totuv yashashi, ular o'rtaida ixtiloflar emas, balki madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy hamkorlikning ustun turishi, o'zaro hurmat va do'stilkning qaror topganligi.

Hamjihatlik – jamiyat a'zolarining bir yoqadan bosh chiqarib, hamfikr, hamkor bo'lib, yagona maqsad yo'lida birlashishiga asoslangan ijtimoiy hodisa. Bu jarayonda umumiyl manfaatlar, qadriyatlар va g'oyalar muhim o'rinn tutadi.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashda o'zaro tushunish, bag'rikenglik, hurmat va ishonch aloqalari mustahkam bo'lishi shart. Bunday ijtimoiy muhitning barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri yoshlar ta'lif-tarbiyasi, ularning qanchalik yuksak ma'nnaviyatga ega ekaniga, tarixiy xotira hamda falsafiy dunyoqarashini shakllantirishga bog'liq.

Tarixiy-falsafiy tafakkurning jamiyatdagи totuvlik va hamjihatlikka ta'sir qiluvchi nazariy omillar quyidagilar:

Ma'nnaviy-ma'rifiy omil:

Yoshlar tarixiy tajriba va merosni chuqur o'rganish orqali turli xalqlar madaniyatining uyg'un tomonlarini kashf qiladilar.

Falsafiy tafakkur ularni insonparvarlik, yaxshilik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltiradi.

Natijada yoshlar o'z qarashlarida cheklangan milliy yoki mahalliy doiradan chiqib, boshqa millat vakillarini ham anglashga, qadrlashga intiladilar.

Ijtimoiy-psixologik omil:

Tarixiy-falsafiy fikrlash jarayonida yoshlarda o'z o'tmishi bilan faxlanish, shu bilan birga, boshqa millatlarning urf-odatlari va qadriyatlarni ham qadrlash hislari rivojlanadi.

Bu esa ularning psixologik barqarorlikka, o'ziga bo'lgan ishonchga, o'z identifikatsiyasini ongli tanlashga yordam beradi.

Ikki yoki undan ortiq millat vakillari yashaydigan muhitda yoshlar bag'rikeng va hamkorlikka tayyor bo'ladi, nizolarga sabab bo'ladigan mafkuraviy qarama-qarshiliklar kamayadi.

Ijtimoiy-siyosiy omil:

Millatlararo totuvlikka erishish, avvalo, siyosiy muhit, qonunchilik va davlat siyosati bilan bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy islohotlar va strategiyalarni to'g'ri tushunish, xalq manfaatları uchun xizmat qilish hissi yoshlarning bilim darajasi, mustaqil fikri orqali shakllanadi.

Yoshlar siyosiy jarayonlarni tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qila olishsa, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangiliklarga, turli mafkuralarga tanqidiy yondashishadi. Bu esa chalg'ituvchi, adashtiruvchi g'oyalar oldida to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy-g'oyaviy omil:

Turli millatlarga xos bo'lgan badiiy ijod namunalari, urf-odatlar, qadriyatlar bilan tanishish yoshlar qalbida go'zallik va hamjixatlikka intilish hissini uyg'otadi.

Falsafiy tafakkur unga estetik did, yuksak badiiy saviyani qo'shib, turli madaniy qadriyatlarga nisbatan keng dunyoqarashni shakllantiradi.

Bunda yoshlar o'zlarini qabul qilgan madaniy an'analar bilan o'zgalarinikini taqqoslaysi.

Yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar:

Ta'lif tizimi orqali:

Maktab va oliy ta'lif muassasalarida tarix, falsafa, huquq, madaniyatshunoslik singari fanlarni chuqur o'qitish;

Interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

O'quv jarayoniga turli xalqlar tarixidan namunalar, buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarini hamda adabiyot namoyandalarining asarlarini kiritish;

Yoshlarni mustaqil tadqiqotlar, loyihalar, ijodiy ishlarni orqali tarixiy vogelikni chuqur tahlil qilishga jalb etish.

Ma'haviy-ma'rifiy tadbirlar:

Tarixiy shaxslar, buyuk alloma va mutafakkirlar merosini o'rganish bo'yicha ko'rik-tanlovlari, davra suhbatlari, onlayn-konferensiylar tashkil etish;

Turli madaniy tadbirlar, festival va ko'rgazmalar orqali yoshlarni boshqa millatlar urf-odatlari, san'ati va musiqasi bilan tanishtirish;

Yoshlar orasida insonparvarlik, bag'rikenglik, totuvlik kabi tuyg'ularni kuchaytiradigan ma'rifiy loyihalarni ommalashtirish.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari:

Yoshlar orasida ommabop bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali tarixiy-falsafiy mavzularda qiziqarli kontentlar tayyorlash va tarqatish;

Millatlararo totuvlikni targ'ib qiluvchi ijtimoiy roliklar, ma'naviy-ma'rifiy filmlar, radio va teleko'rsatuvlar yaratilishini rag'batlanirish;

Yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, turli manbalar bilan ishslash, ularni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oilaviy tarbiya va muhit:

Oilada tarbiya olayotgan yoshlar avvalambor o'z ota-bobolarining qadriyatlarini o'rganadi. Shu bilan birga, boshqa millatlar merofiga ham ochiq munosabatda bo'lish masalalari oilada muhokama qilinishi lozim;

Ota-onalar, keksa avlod vakillari o'z o'tmish tajribalarini hikoya qilib berish orqali yoshlarning tarixiy xotira va millatlararo munosabatlar borasidagi dunyoqarashini boyitadi.

XULOSA

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, bunda yoshlar hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Yoshlar ongida tarixiy xotira va falsafiy dunyoqarash shakllangan taqdirdagina, ular turli madaniyat va an'analarga xolis yondasha oladigan, bag'rikeng, hamkorlikka moyil va ijtimoiy mas'uliyatni his qiluvchi shaxslar bo'lib etishadi. Shu ma'noda, tarixiy-falsafiy tafakkur millatlararo totuvlik va hamjihatlikka zamin yaratadi, yoshlar orasida o'zlikni anglash bilan birga, boshqa millat va elatlar madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini ham hurmat qilishni ta'minlaydi va ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Tarix va falsafa fanlarini chuqur o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, oilaviy tarbiya va ommaviy axborot vositalari orqali yoshlar ongida insonparvarlik, bag'rikenglik, totuvlik fazilatlarini singdirish - jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridandir. Shunday ekan, ta'lif tizimidan tortib keng jamoatchilik darajasigacha bo'lgan barcha bosqichlarda yosh avlodni tarixiy-falsafiy tafakkurga tayangan holda, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni birdek qadrlovchi etib tarbiyalash jamiyat ravnaqining muhim garovi bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziev S. "Millatlararo munosabatlar sotsiologiyasi". – Toshkent: Sharq, 2010.
2. Pardaev T. R., Tursunov Z. N. The attitude of the despotic regime to national and religious values //Ўтмишга назар журнали. –2019.–T. 23. – № 2.
3. Qo'chqorov, R., & Tojiboyeva, D. (2016). Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: TDYU.
4. Rasulov I. "Bag'rikenglik va millatlararo totuvlik falsafasi" // "Falsafa va qonun" jurnali, №2, 2019, 45–52-betlar.
5. To'rayev F. "Tarixiy tafakkur va yoshlar tarbiyasi" // "Milliy tiklanish" jurnali, №4, 2020, 33–40-betlar.

ILMIY AXBOROT

-
6. Xolbekov S. "Tarixiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
 7. Yunusova D. "Yoshlar ma'naviyati va madaniyatlararo muloqot". – Toshkent: Yangi asr avlod, 2022.
 8. Видгоф В.М. В 42 Философия эстетического сознания: интеллектуально эмоциональный мир, социальная природа и специфика. - Томск: Изд-во Том. ун-та. - 356 с.)